

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

FARG'ONA IQTISODIY RAYONI KIMYO SANOATI

TARMOQ TARKIBI

Abdinazarova X. O.

PhD, dotsent, QDPI

Karimova M.

Umarova K.

talaba, QDPI

Annotatsiya

Maqolada Farg'ona iqtisodiy rayonida keyingi yillarda kimyo sanoat korxonalarining hududiy tashkil etilishi va ularning tarmoq tarkibi tahlil qilingan. Shuningdek, kimyo sanoat korxonalarining hududiy ulushi aniqlangan hamda xulosalar qilingan.

Kalit soʻzlar: Farg'ona iqtisodiy rayoni, kimyo sanoat, tarmoq tarkibi, hududiy ulush, kimyo sanoat korxonasi, mahsulot ishlab chiqarish hajmi.

СОСТАВ СЕТИ ХИМИЧЕСКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ ФЕРГАНСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЙОНА

Абдиназарова Х.О. – PhD., доцент, КГПИ
Каримова М., Умарова К. – студентки КГПИ

Аннотация

В статье проанализирована региональная организация предприятий химической промышленности и их сетевая структура в Ферганском экономическом районе в последующие годы. Также определена территориальная доля предприятий химической промышленности и сделаны выводы.

Ключевые слова: Ферганский экономический район, химическая промышленность, структура промышленности, территориальная доля, химическое промышленное предприятие, объем производства продукции.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

CHEMICAL INDUSTRY OF FERGANA ECONOMIC REGION NETWORK COMPOSITION

Abdinazarova X.O. - PhD, associate professor, KSPI

Karimova M., Umarova K – students, KSPI

Annotation

In the article, the regional organization of chemical industry enterprises and their network structure in the Fergana economic region in the following years were analyzed. Also, the territorial share of chemical industry enterprises was determined and conclusions were made.

Keywords: Fergana economic region, chemical industry, industry structure, territorial share, chemical industrial enterprise, volume of product production.

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kimyo sanoatini, jumladan, mahalliy kimyo sanoatini rivojlantirishga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchaymoqda. Bunda hududlarning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari va mahalliy xususiyatlarini hisobga olgan holda kimyoviy korxonalarni joylashtirish va uning hududiy tarkibini takomillashtirish bo‘yicha bir qator islohotlar olib borilib sezilarli ijobiy natijalarga erishilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2022 yil 10 oktyabrdagi PQ-388-sonli Qarorida “Mahalliy mineral xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash orqali yangi turdagi kimyo va gaz-kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish, sohaga mahalliy va xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish maqsadi” [1] belgilab qo‘yilgan. Mazkur maqsadni amalga oshirishda, respublika va uning hududlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga kimyo sanoatining ta‘sirini aniqlash, uning tarmoq va hududiy tarkibidagi o‘zgarishlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Respublikada 2020 yil 1 yanvar holatiga jami 6375 ta kimyo sanoat korxonalari faoliyat yuritgan bo‘lib, shuning 22,8 foizi Farg‘ona iqtisodiy rayonida joylashgan. Jami iqtisodiy rayonda faoliyat ko‘rsatayotgan kimyo sanoat korxonalarining 48,0 foizi Farg‘ona viloyatiga, 31,4 foizi Andijon viloyatiga, qolgan qismi ya‘ni, 20,6 foizi Namangan viloyati hududiga to‘g‘ri keladi. Iqtisodiy rayonda kimyo sanoat hududiy tarkibiga yirik kimyo sanoat korxonalari bilan birgalikda



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

mahalliy kichik kimyo sanoat korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi ham ta'sir ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval 2015-2020 yillarda Farg'ona iqtisodiy rayoni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kimyo sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm hisobida)

№		2015				2020			
		Koks va neftni qayta ishlash	Kimyo Mahsulotlari	Rezina va plastmassa buyumlari	Asosiy turdagi farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari	Koks va neftni qayta ishlash	Kimyo Mahsulotlari	Rezina va plastmassa Buyumlari	Asosiy turdagi farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari
	Farg'ona iqtisodiy rayoni	1249,0	2441,4	185,0	52,3	2408,6	2847,4	748,7	299,2
1.	Andijon	0,1	6,3	29,0	0,9	6,3	524,1	236,8	50,7
2.	Namangan	0,4	42,4	23,5	50,1	9,6	201,3	154,6	230,4
3.	Farg'ona	1248,5	2392,7	132,5	1,3	2392,7	2122,0	357,3	18,1

Jadval Farg'ona, Andijon va Namangan viloyati statistika boshqarmalarining 2015-2020 yil ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Hozirgi kunda iqtisodiy rayonda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish, koks va neftni qayta ishlash tarmog'i yuqori darajada taraqqiy etgan. Bu borada rayon respublikada ham o'ziga xos mavqega ega. Buni yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlarini kuzatish va tahlil qilish orqali ham kuzatish mumkin (1-jadvalga qarang). Iqtisodiy rayonda 2015 yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami 3927,3 mlrd. so'mlik kimyo sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgani holda, bu ko'rsatkich 2020 yilda (keyingi besh yil ichida) 6303,9 mlrd. so'mni tashkil qilgan. 2005 yilga nisbatan o'sish 1,6 martaga ortgan. Bu borada Farg'ona viloyatining hissasi katta, aksincha Namangan viloyatining hissasi juda ham oz. Biroq, o'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki Namangan viloyatida keyingi yillarda farmatsevtika sanoatini keskin rivojlanayotganligini ko'rish mumkin va ushbu sanoat tarmog'i bo'yicha viloyat iqtisodiy rayonda birinchi o'rinda turadi.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

2020 yilda viloyat 230,4 mlrd.so'mlik (jami farmatsevtika mahsulotlarining 77,0 foizi) farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqargan. Bu ma'lumotlar Namangan viloyatida ushbu tarmoqning istiqboli yuqori ekanligidan darak beradi.

Iqtisodiy rayonda rezina va plastmassa buyumlari sanoati ham rivojlanmoqda. Rayonda birgina 2020 yilda 748,7 mlrd. so'mlik rezina va plastmassa buyumlari ishlab chiqarilgan. Bu jami kimyo sanoat ishlab chiqarishining 11,9 foiziga teng. Rezina va plastmassa buyumlari ishlab chiqarish bo'yicha ham hududiy tarkibda Farg'ona viloyati yetakchi (357,3 mlrd.so'm), keyingi o'rinni Andijon viloyati (236,8 mlrd.so'm) band qilgan bo'lsa, Namangan viloyati (154,6 mlrd.so'm) esa oxirgi o'rinda turadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi paytda iqtisodiy rayonda kimyo sanoat korxonalarida faoliyat yuritayotgan jami ishchi-xodimlar soni 12521 nafarni tashkil qiladi. Buning 10033 nafari Farg'ona viloyatiga, 1719 nafari Andijon viloyatiga, 769 nafari esa Namangan viloyatiga to'g'ri keladi [114]. Yana shuni alohida aytish mumkinki, iqtisodiy rayondagi yirik kimyo sanoati "Farg'onaazot" AJ korxonasida jami 2021 yil, 1 yanvar ma'lumotlariga ko'ra 7551 nafar ishchi-xodim mehnat qilmoqda. Bu iqtisodiy rayon korxonalarida xizmat qilayotgan ishchi-xodimlarning 60,3 foizi demakdir.

Farg'ona viloyatida hozirgi kunda kimyo sanoat tarmoqlarida jami 10033 ta ishchi-xodimlar mehnat qilmoqda. Iqtisodiy rayondagi jami ishchi-xodimlarning 80,1 foizi to'plangan. Viloyatdagi ishchi-xodimlarning 8773 tasi yirik kimyo sanoat korxonalarida ("Farg'onaazot" AJ - 7551 nafar, Qo'qon superfosfat AJ - 1222 nafar)ga to'g'ri keladi. Qolgan 1260 nafar ishchi-xodimlar esa asosan kichik kimyoviy ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qilmoqdalar. Bu borada tumanlar orasida ishchi-xodimlar soniga ko'ra Uchko'prik (184 nafar), Dang'ara (100 nafar), O'zbekiston (63 nafar) tumanlari alohida ahamiyat kasb etadi. Yozyovon (3 nafar) va So'x (4 nafar) tumanlariga esa eng kam ishchi-xodim to'g'ri keladi va kimyo sanoat korxonalarida deyarli shakllanmagan.

Andijon viloyatida esa kimyo sanoat korxonalaridagi ishchi-xodimlar soni 1719 nafarni tashkil qilib, ularning asosiy qismi Andijon shahriga (1250 nafar) to'plangan. Tumanlar orasida ishchi-xodimlar soniga ko'ra Andijon tumani (138 nafar), SHahrixon tumani (107 nafar) alohida ahamiyatga ega bo'lsa, bu borada Baliqchi va Marhamat tumanlariga eng kam 2 nafar ishchi-xodim to'g'ri keladi.

Namangan viloyatida bugungi kunda kimyo sanoat korxonalarida jami 769 nafar ishchi-xodim mehnat qiladi, bu iqtisodiy rayondagi ishchi-xodimlarning 6,1 foizini



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

tashkil etadi. Ishchi xodimlar sonini Farg'ona viloyatiga nisbatan taqqoslaganda, 13,1 barobarga kam degani. Viloyatda ishchi-xodimlar soniga ko'ra Namangan shahri (349 nafar) yetakchilik qiladi. Tumanlar orasida esa Uychi (107 nafar), Uchqo'rg'on (105 nafar), Namangan (81 nafar) va Kosonsoy (62 nafar) kabilar ajralib tursa, Mingbuloq va Yangiqo'rg'on tumanlarida esa mazkur sanoat tarmog'i yaxshi rivojlanmagan.

Xulosa

O'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy rayonda kimyo sanoat korxonalar soni, hududiy tarkibi, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ko'ra Farg'ona viloyatining salmog'i ancha ustun. Shu sababli keyingi yillarda Namangan va Andijon viloyati kimyo sanoat tarmoqlarini yanada rivojlantirish va hududiy tarkibini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi va zarurat tug'iladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2022 yil 10 oktyabrdagi PQ-388-sonli Qarori.
2. Abdinazarova, H. O. "FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA TASHKIL ETILGAN KIMYO SANOAT KORXONALAR FAOLIYATINING GEOGRAFIK TAVSIFI." *Ekonomika i sotsium* 3-2 (94) (2022): 351-356.
3. Oripovna, Abdinazarova Xidoyatxon, and Abduvohidova Zumradxon. "Sectoral and Regional Characteristics of the Chemical Industry in Uzbekistan." *American Journal of Social and Humanitarian Research* 3.11 (2022): 333-338.
4. Kh, Komilova N., and H. O. Abdinazarova. "The role and geographical features of the chemical industry in the development of the economy of Uzbekistan." *Ekonomika i sotsium* 5-1 (84) (2021): 248-255.
5. Abdinazarova, X. O. "Geographic approach to the development of the network of chemical industry of Uzbekistan." *Ekonomika i sotsium* 9 (76) (2020): 3-7.
6. Oripovna, A. K. "The Importance of Establishing a Cluster System in Improving the Territorial Structure of the Chemical Industry of Fergana Economic District." *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences* 2.6 (2022): 135-140.
7. Komilova, N. Kh. "Abdinazarova Kh. O. Some theoretical aspects of the development of the chemical industry." *European Science Review Austria Vienna* (2019): 25-27.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

8. Abdinazarova H.O. "FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA TASHKIL ETILGAN KIMYO SANOAT KORXONALAR FALIYATINING GEOGRAFIK TAVSIFI" *Ekonomika i sotsium*, no. 3-2 (94), 2022, pp. 351-356.

9. Abdinazarova, X. O. "Geographic approach to the development of the network of chemical industry of Uzbekistan. *Ekonomika i sotsium. Elektronnoe periodicheskoe izdanie Rossiya*, g. Saratov 2020. № 9 (76)." 3-7.

10. Oripovna, Abdinazarova Xidoyatxon. "Stages of Development of Uzbekistan Industry and Changes in It." *Eurasian Journal of History, Geography and Economics* 20 (2023): 56-60.

11. Oripovna, Abdinazarova Xidoyatxon, and Abdinazarov Bunyodjon Khaliqazarovich. "Application of Non-Standard Test Tasks in Teaching the Subject of "Lower Amu Darya Economic District"." *Eurasian Journal of History, Geography and Economics* 20 (2023): 61-64.

12. O'zbekiston davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. 2021 yil.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

